

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

2025-YIL
8-IYUL
SESHANBA
№ 27
(1491)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!



ADLIYA XABARI

DAVLAT ARXIVI FAOLIYATI O'RGANILDI

Adliya vaziri Akbar Toshqulov Toshkent viloyat davlat arxivida bo'lib, arxiv faoliyatining bugungi holati, xususan:

- aholiga arxiv xizmatlarini ko'rsatish sifati;
- arxivning moddiy-texnik bazasi;
- hujjatlarning saqlanish holati;
- mavjud hujjatlarni raqamlashtirish jarayonlari bilan tanishdi.

O'rganish jarayonida aniqlangan muammolar, tizimli kamchiliklar va ularni keltirib chiqarayotgan omillar chuqur tahlil qilindi.

Adliya vaziri tomonidan mavjud holat bo'yicha mas'ullarga aniq tavsiyalar berilib, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish, arxiv hujjatlarining ishonchli saqlanishi va ularning raqamli bazasini kengaytirish bo'yicha zarur choralar belgilandi.



Tashabbuslar yetarli,
natija esa...

3-betda o'qing ▶

KUN NAFASI

1-iyul

Vazir kotibi yati boshlig'i A. Sarabekov boshchiligi-dagi ishchi guruhi Qibray tumani va Chirchiq shahar adliya bo'limgari faoliyati bilan tanishib, xodimlar bilan muloqot o'tkazdi.

Yoshlar kuni munosabati bilan viloyat markazidagi "Alisher Navoiy" bog'ida Navoiy viloyat adliya bosh-qarmasi va Navoiy shahar adliya bo'limi tomonidan "Adliya sayli" tashkil etildi. Tadbir davomida sayyor qabul, mehnat yarmarkasi, hunarmandchilik mahsulotlari, huquqiy adabiyotlar, milliy madaniy markazlar, NNT vakillari qo'l ishlari ko'rgazmasi tashkil etilib, FHDY, notarius xizmati, davlat xizmatlari sayyor tartibda ko'rsatildi.

2-iyul

Vazirlik ishchi guruhi tomonidan Yuqorichirchiq va Parkent tuman adliya bo'limgari faoliyati bilan tanishilib, xodimlar bilan muloqotda ularning faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish, davlat va yuridik xizmat ko'rsatish jarayonini raqamlashtirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha takliflari tinglandi.

Adliya vaziri o'rinos Sh. Rabihev tomonidan Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi olis hudud bo'lgan "Dorilomon" MFYda fuqarolar bilan muloqot va sayyor qabul o'tkazildi.

3-iyul

Adliya vaziri o'rinos M. Istamov xizmat safari bilan Qashqadaryoda bo'ldi. Xizmat safari davomida Ko'kdala tuman adliya bo'limi tomonidan "Huquqiy mahalla" konsepsiysi doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda "mahalla yettiligi" faoliyati o'rganildi.

Adliya vaziri o'rinos N. Muxammadiyev va Qoraqpog'iston Respublikasi adliya vaziri E. Tursunov ishtirotida Ellikqal'a tumani, "Bostan" MFYda hamda Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari bilan sayyor qabul o'tkazildi.

Adliya vaziri A. Toshqulov Chirchiq shahrida "Huquqiy mahalla" loyihasi ijrosi bilan tanishdi. Safar davomida "Kamalak" mahallasida Adliya vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Adliya kutubxonasi" faoliyati ham o'rganildi.

4-iyul

Adliya vaziri A. Toshqulov Nurafshon shahrida adliya tiziminining bir nechta muhim yo'nalishlarini o'rgandi. Xususan, davlat xizmatlari ko'rsatish markazi, X. Sulaymonova nomidagi Sud ekspertizasi markazi Nurafshon filiali faoliyati bilan tanishdi.

5-iyul

Adliya vaziri o'rinos M. Istamov hamda Rossiya Federatsiyasining ekspertlari va Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Uy-joyning yagona hayotiy sikli" tamoyilini amalga oshirish bo'yicha loyiha ofisi vakillari ishtirotida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Farg'ona viloyat adliya boshqarmasida tadbirkorlik subyektlariga intellektual mulk obyektlarini yaratish hamda ularni davlat tomonidan muhofaza va himoya qilish bo'yicha sayyor qabul o'tkazildi.

2 JARAYON

SAMARQAND shahrida bo'lib o'tgan davlat boshqaruvi sohasidagi eng yirik xalqaro tadbirlardan biri – “2030-yilgacha besh yil: Barqaror kelajak uchun davlat xizmatlari ni ko'rsatishni jadallashtirish” mavzusidagi BMTning davlat xizmati forumida yalpi majlislar, mavzuli muhokamalar, strategik muloqotlar va ilg'or amaliyotlar taqdimoti bo'lib o'tdi. Xalqaro anjumanda AQShdagi Sirakyuz universiteti huzuridagi Maksell fuqarolik va davlat boshqaruvi maktabi dekani Devid M. Van Slayk ishtirot etdi.



Devid M. Van Slayk,

AQShdagi Sirakyuz universiteti huzuridagi Maksell fuqarolik va davlat boshqaruvi maktabi dekani:

MARKAZIY OSIYODA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING KELAJAGIGA INVESTITSIYA

2030-yilga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari yakuniy bosqichga kirar ekan, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston va Qozog'iston davlat xizmatlarini transformatsiya qilish imkoniyatiga ega ekanini ko'rishimiz mumkin. Ushbu transformatsiyaning kaliti – davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini institutsional asosda rivojlantirishdir.

2016-yilda Journal of Public Administration Research and Theory jurnalida ta'kidlaganimizdek, samarali boshqaruv – DXSh muvaffaqiyatining hal qiluvchi omilidir. Bu boshqaruv quyidagi elementlarga tayanadi:

– umumi maqsadlar, huquqiy aniqlik va o'zaro hisobdorlikni belgilaydigan institutsionallashgan tizimni yaratish, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash va umumi me'yorlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

– Boshqaruv mexanizmlari nafaqat tuzilish jihatdan mustahkam bo'lishi, balki munosabatlar darajasida ham samarali ishlashi kerak. Bu esa faqat qoidalarga riox qilish va hisobdorlikni ta'minlash bilan cheklanmay, sektorlararo ishonch, hamkorlik va moslashuvchanlikni ham rag'batlantirishi lozim.

– Institutsional modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda kechayotgan Markaziy Osiyoda davlat-xususiy sheriklik uchun mustahkam asos yaratish ham strategik zarurat, ham amaliy vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston (2019-yildan) va Qozog'iston (2015-yildan) DXShni tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilgan va muhim loyihalarni amalga oshirib, tajriba orttirgan. Bu ularning ehtiyojlarini aniqlab, o'ziga mos boshqaruv modellarini ishlab chiqishga imkon berdi.

Umumi maqsad va ko'satkichlar masalasiga kelsak, davlat-xususiy sherikliklar (DXSh) aniq belgilab qo'yilgan maqsadlarga tayanishi kerak, masalan, raqamli nomutanosiblikni kamaytirish yoki aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish. Bunday yondashuv natijalarni baholash uchun mustahkam asos yaratib beradi, sheriklar o'rtasidagi manfaatlarni muvoqiflashtiradi va dastlabki maqsadlardan chetlashish hamda fokus yo'qolishiga olib keluvchi xavflarni kamaytiradi.

Siyosiy-huquqiy me'yorlar arxitekturasi, shu jumladan, kontraktlashtirilgan kelishuvlar, tomonlarning rollari, moliyalashtirish modellar, nizolarni hal etish mexanizmlari va natijaga asoslangan to'lov

tizimini aniq belgilab berishi lozim. Shu bilan birga, bu tizim faqatgina qoidalarga riox qilishning qattiq mexanizmlariga tayanish bilan cheklanib qolmasligi, biroq yetarlicha egiluvchan bo'lishi va ishonchni mustahkamlovchi amaliyotlar bilan ta'minlanishi kerak. Ochiqlik va nazorat mexanizmlari jamoatchilik uchun mo'ljallangan real vaqtida ishlaydigan onlayn panellar, audit tizimlari, davlat xaridlari bo'yicha ochiq platformalar hamda manfaatdor tomonlar bilan fikr almashish kanallari kabi vositalarni o'z ichiga olishi lozim. Ushbu mexanizmlar bir vaqtning o'zida ham korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar, ham fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini va davlat institutlarining legitimligini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Aminmanki, bugungi kunda Markaziy Osiyo tarixiy ahamiyatga ega bosqichda turibdi. Butun mintaqada davlat xizmati sohasida islohotlar boshlangan, raqamli sohalarda investitsiyalar faollashmoqda va korrupsiya darajasini kamaytirish bo'yicha sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Navbatdagi muhim qadam – bu sektorlararo hamkorlikni institutsionallashtirishdir. Shu munosabat bilan men Markaziy Osiyoda davlat-xususiy sherikliklarni boshqarish bo'yicha Ishchi guruh tuzishni taklif qilaman. Mazkur guruh tegishli sohalardagi vazirliliklar tomonidan Maksell maktabining konsultativ guruhlarining metodik va ekspertlik ko'magi orqali boshqarilishi mumkin. O'z navbatida, Maksell maktabi rahbar lavozimdag'i davlat xizmatchilari va DXSh menejerlari uchun maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishga va maktab tarkibidagi 15 ta fanlararo tadqiqot markazi natijaga yo'naltirilgan, texnologiyaga asoslangan va shaffoflik mezonlari asosida nazorat qilinadigan sinov DXSh loyihalarini qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Dunyoda yetakchi bo'lgan akademik muassasalardan biri – AQShdagi Sirakyuz universiteti huzuridagi Maksell fuqarolik va davlat boshqaruvni maktabi bilan hamkorlik qilish orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat-xususiy sherikliklarning samaradorligini ta'minlaydigan mustahkam institutsional asosni – huquqiy, kadrlar va texnologik yo'naliishlarda – shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday hamkorlik jamiyat uchun haqiqiy qiymat yaratishga, ishonchni mustahkamlashga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

HUQUQIY XABARNOMA

ZARGARLIK BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISH QO'LLAB-QUVVATLANADI

“Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

qimmatbaho metallarni qayta ishlashning yillik hajmini 7 tonnaga, zargarlik buyumlarini eksport qilish ko'satkichlarini 300 mln AQSh dollariga yetkazish;

qimmatbaho metallar va zargarlik buyumlari ning norasmiy aylanmasini kamida 50 foizga qisqartirish.

Qarorga ko'ra, zargarlik markazlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga quyidagi qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etiladi.

Jumladan:

qimmatbaho metallarni kechiktirib to'lash sharti bilan sotishda 90 kun ichida amalga oshirilgan to'lovlar qismiga foiz hisoblanmaydi, 91-kundan boshlab 180-kungacha amalga oshirilgan to'lovlar qismiga – yillik 3 foiz miqdorida foiz hisoblanadi;

zargarlik markazlarida “O'zbekzargarsanoati” uyushmasi va Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasining filiallari faoliyati (sayyor xizmat ko'rsatish) yo'lga qo'yiladi;

zargarlik markazlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar “O'zbekzargarsanoati” uyushmasiga a'zo bo'lгanda, a'zolik badalini 50 foizlik chegirma bilan to'laydi.

TADBIRKORLARGA SUBSIDIYA AJRATILADI

Hukumat qarori bilan “Nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlashga ko'maklashish, ularning bandligini ta'minlash hamda mehnat qilishini qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish tartibi to'g'risida”gi nizom tasdiqlandi.

Nizom nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlagan tadbirkorlar hamda xususiy bandlik agentliklariga quyidagi qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tartibini belgilaydi:

bandlikka ko'maklashish subsidiyasi;

ish o'rinaligiga moslashtirish subsidiyasi.

Nizomga ko'ra, “Nogironligi bo'lgan shaxslar bandligiga ko'maklashish elektron reyestri” axborot moduli yuritiladi.

Bandlikka ko'maklashish subsidiyasi quyidagi tabalbarga javob beradigan tadbirkorlarga ajratiladi:

elektron reyestrda turgan I va (yoki) II guruh nogironligi bo'lgan shaxsning kamida 3 oy davomida uzlusiz rasmiy bandligini ta'minlagan;

mazkur davrda unga har oyda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 2 baravaridan kam bo'lмаган miqdorda ish haqi to'lagan.

Ish o'rinaligiga moslashtirish subsidiyasi bandligi ta'minlangan I va (yoki) II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun surdotarjimon, psixolog yoki hamrohlik xizmatini tashkil qilgan tadbirkorlarga 50 mln so'mgacha miqdorda ajratiladi.

Subsidiyaning har oylik miqdori quyidagicha:

surdotarjimon xizmati uchun BHMning 8 baravari;

psixolog xizmati uchun BHMning 10 baravari;

hamrohlik xizmati uchun BHMning 5 baravari.

Tadbirkorlar ushbu subsidiyalarni olish uchun “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi yoki YIDXP (my.gov.uz) orqali elektron so'rovnomaga bilan murojaat qiladi.

@huquqiyaxborot

30-IYUN – O'zbekiston yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbir mamlakat yoshlari hayotida unutilmas voqeaga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ochiq, samimiylar muloqoti butun mamlakatda yoshlarga bo'lgan yuksak e'tibor va ishonchning yana bir isboti bo'ldi.

O'ZBEKISTON YOSHLAR BILAN BIRGA O'SMOQDA

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YOSHLAR BILAN UCHRASHUVI HAQIDA



Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan ushbu tadbirda Prezident bir guruh faol va iqtidorli yoshlarni davlat mukofotlari bilan taqdirladi. Tadbir davomida yoshlarning ta'limi, bandligi, innovatsion salohiyati va jamiyatdagi o'rni kabi dolzarb mavzular atroflichcha muhokama qilindi.

"Har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziyi - chunki bizda ilmi, g'ayratli, aql-zakovatli yoshlar bor!" - dedi Prezidentimiz.

Bugun O'zbekiston yoshlari xalqaro maydonlarda ham o'z o'rnini topmoqda. Ayni paytda 30 nafar o'zbekistonlik yigit-qiz dunyoning eng nufuzli TOP-10 oliyohida, 500 nafari TOP-100, 1500 nafari esa TOP-300 universitetlarda tahsil olmoqda. Bular davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ta'lif siyosatining amaliy natijasi bo'lib, yoshlarning global raqobatga tayyor kadrlar sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati takomillashtirilib, TOP-300 ta'lik oliyohlarga kirgan yoshlarga ta'lif va yashash xarajatlari qoplab berilmoxda. Shuningdek, imtizozli kreditlar, 145 million dollarlik venchur investitsiyalar, "Mohirlik va biznes soati" kabi yangi tashabbuslar yoshlarni erkin va ijodiy fikrlashga undamoqda.

Yoshlarning iqtisodiyotdagi o'rni ham ortib bormoqda. Bugungi kunda 261 ta yosh tadbirkorlik subyekti yillik 100 milliard so'mdan ortiq aylanmaga ega. "Bir million dasturchi" loyihasi orqali 325 ming nafar yosh kasb egasiga aylangan. "Yoshlar biznesi" va "Kelajakka qadam" dasturlari esa, 240 mingdan ortiq yigit-qizning bandligini ta'minlamoqda. Yoshlarning

startap g'oyalarni real mahsulotga aylantirish yo'lida prototiplashtirish, grantlar ajratish, "Startap-ekspo" ko'rgazmalarini tashkil etish kabi mexanizmlar joriy etildi. Bular innovatsion infratuzilmaning barpo etilayotganidan dalolat beradi.

Uchrashuvda mahalla institutining yoshlar bilan ishlashdagi o'rni alohida ta'kidlandi. Prezident har bir mahalla raisini yoshlar taqdiri uchun javobgar etib belgiladi. "Bolaning yomoni bo'lmaydi. Ularga imkon, ishonch va mehr kerak. Mahalla bitta bolani yo'qotmasligi kerak", - dedi davlat rahbari.

Mahallalardagi yoshlar yetakchilari soni hozirda 9 ming nafardan oshgan. Ammo muammolar ham mavjud: 167 ming uyushmagan yosh va 17 mingdan ortiq huquqbazar o'quvchining mavjudligi tizim oldida jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Shu sabab, maktab, kasb-hunar markazlari, tadbirkorlar va mahallalar o'rtasida muloqot tizimi yo'lga qo'yilishi zarurligi qayd etildi.

Yoshlarni davlat boshqaruviga tayyorlash masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Endilikda Prezident farmoniga ko'ra, Davlat boshqaruvi akademiyasida har yili 100 nafar iqtidorli yosh "Kelajak liderlari" dasturi asosida tayyorlanadi. Ular rahbarlar bilan bevosita ishlaydi, xorijda stajirovka o'taydi va bo'lajak rahbarlar sifatida shakllanadi.

O'zbekiston yoshlar siyosati bo'yicha xalqaro darajada ham yetakchilik sari qadam qo'yemoqda. Yurtimiz BMTning "Yoshlar - 2030" strategiyasini faol amalga oshirayotgan 10 davlatdan biri sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, Buxoro va Toshkent shaharlari "Xalqaro yoshlar poytaxti" maqomini oldi.

Kelajakda dolzarb bo'lgan "raqamli geologiya", "yashil

energiya", "bioinjeneriya" va "kreativ iqtisodiyot" yo'nalishlari uchun minglab malakali mutaxassislarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Prezident bu borada aniq maqsadlarni belgilab berdi: "Shu bois hozirdanoq bunday loyihalarga kadrlar tayyorlashni boshlaysiz. Faqat zamonaviy bilimga ega bo'lganlarga yangi texnologiyalar asrida yutadi".

Bugungi kunda umumiy qiymati 35 milliard dollardan ortiq bo'lgan 8 ming 300 ta loyiha doirasida 292 ming ish o'rni yaratiladi. Bu nafaqat bandlikni oshiradi, balki yoshlarning o'z startaplarini yo'lga qo'yishiga, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishiga yo'l ochadi. Bundan tashqari, yoshlar uchun grant dasturlari kengaytirilmoqda. Startap g'oyalarni amalda sinab ko'rish uchun 100 milliard so'm mablag' ajratildi. IT-park va Innovatsiyalar agentligi tomonidan "RnD" markazlari tashkil etilmoqda. Har yili 3 ming nafar iqtidorli o'quvchi xalqaro oliyohollar uchun maxsus tayyorlanadi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun esa alohida kvotalar ajratiladi.

Milliy ta'lif tizimidagi muhim yangiliklardan yana biri - "Garvardchilar" maktabining tashkil etilishidir. Bu - O'zbekistonda xalqaro nufuzli oliyoholarga tayyorloving ilk milliy modeli sifatida e'tiborni tortmoqda.

Xorijiy tillarni o'rganish borasidagi natijalar ham e'tiborga molik: o'tgan yili 150 mingdan ortiq yoshlar xalqaro til sertifikatlariga ega bo'ldi. Toshkent, Farg'on, Buxoro va Namangan yoshlari bu borada ilg'orlik qilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi yoshlarga oid har bir qaror, har bir tashabbus-ularning hayotini o'zgartirish, salohiyatini yuzaga chiqarish, jamiyatdagi faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston yoshlar bilan birga o'smoqda, ularning kuchi bilan Yangi O'zbekistonni barpo etmoqda.

**Asilbek MO'MINOV,
TDYU Xalqaro huquq va
inson huquqlari kafedrasini
o'qituvchisi,
AQShning Pennsilvaniya
davlat universiteti
huquq magistri**

TASHABBUSLAR YETARLI, NATIJA ESA...



YOSHLAR har qanday jamiyatning ertangi tayanchi, uning kelajagini belgilovchi eng muhim ijtimoiy qatlama hisoblanadi. Shu sababli, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jinoatchilik va huquqbazarlikdan himoya qilish nafaqat ayrim tashkilotning ishi, balki butun jamiyatning umumiylashtirishini vazifasidir.

Adliya idoralari tomonidan bu borada bir qator sa'marali ishlar yo'lga qo'yilgan. Yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ana shu maqsadda ta'lif muassasalarida turli formatdagi huquqiy darslar, davra suhbatlari, seminar va treninglar tashkil etilmoqda. "Huquqiy bilimlar oyligi", "Adolat soati", "Huquqiy savodxonlik maktabi" kabi tashabbuslar aynan yoshlarning huquqiy tafakkurini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasiga 156 nafar yoshlar biriktirilgan bo'lib, ular bilan manzilli ishlab, doimiy muloqot qilinmoqda. Otaliquqa olingan yoshlar va ularning ota-onalari bilan uchrashib, ularning muammolari va takliflari o'rganilmoqda.

Shuningdek, jinoatchilik xavf yuqori bo'lgan yoshlar bilan alohida profilaktik ishlar olib borilib, ichki ishlar organlari, ta'lif muassasalarini, Yoshlar ishlari agentligi bo'limlari va mahalla fuqarolar yig'inalari hamda oila bilan hamkorlikda ularga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish, ijtimoiylashuv jarayonida motivatsion suhbatlar o'tkazish orqali ularni jamiyatga, sog'lom ijtimoiy hayotga qaytarish bo'yicha ijobjiy natijalarga erishilmoxda.

Yoshlar o'rtasida jinoatchilikni kamaytirish uchun faqat umumiy targ'ibotning o'zi yetarli emas, albatta. Shu bois, adliya boshqarmasi tomonidan jinoyat sodir etgan yoki jinoyatga moyil deb topilgan yoshlar bilan individual ishslash amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bunday yoshlar bilan manzilli yondashuv asosida psixologik va huquqiy suhbatlar olib boriladi, ularning ijtimoiy moslashuvi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Bundan tashqari, so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish orqali huquqiy targ'ibotning yangi usullari joriy etilmoqda. Yoshlar auditoriyasiga mos, sodda va tushunarli til bilan tayyorlangan videoroliklar, postlar va infografikalar yordamida qonunlar mazmuni keng targ'ib qilinmoqda.

Bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, muammolar ham yetarli. Jumladan, ayrim hududlarda huquqiy targ'ibot tizimli olib borilmayapti. Shuningdek, yoshlarning huquqiy mas'uliyatni his qilish darajasi hali ham pastligicha qolmoqda.

Yoshlar o'rtasida turli tahdidlar, ijtimoiy muammolar, ishsizlik, axborot xurujlari va ma'nnaviy tanazzul fonidagi huquqbazarlik va jinoatchilik holatlari ham jiddiy xavf tug'dirayapti. Ana shunday muhitda yoshlarning jinoyat va boshqa salbiy holatlardan himoya qilish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish har qachongidan ko'ra dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jinoatchilikning oldini olish faqat jazoga asoslangan yondashuv sifatida emas, balki huquqiy tarbiya, huquqiy targ'ibot va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash orqali hal qilinadigan muhim ijtimoiy jarayon sifatida ko'rilmoxda.

**Salohiddin NURIYEV,
Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i**

4 ADLIYA XALQ ORASIDA

HECH BIR SHAXS HUJJATSIZ QOLMAYDI!

□ HUJJAT ishi oson emas. Kishi ba'zan tug'ilib, voyaga yetgan hududida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ham ortiqcha kuch va vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Agar hujjatlashtirish boshqa bir davlat bilan aloqador bo'lsa-chi? Bunday holatda masalaning yechimi yo'qdek tuyulishi mumkin. Vladimir Kryukov ham dastlab muammoga ana shunday yondashgan. U uzoq yillar mobaynida O'zbekiston hududida yashayotgan bo'lsa-da, Rossiya Federatsiyasida tug'ilgani va tegishli hujjatlar o'z vaqtida rasmiylashtirilmagani bois ko'plab huquqlardan foydalanishi chegaralangan. "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" aksiyasi doirasida Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan holatga aniqlik kiritildi. V. Kryukovga Rossiyaning Chelyabinsk viloyati FHDY organidan tug'ilganlik haqidagi takroriy guvohnoma olingach, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, yoshta doir pensiya tayinlandi. Shuningdek, u yakka-yolg'iz keksa sifatida ijtimoiy reyestrga kiritilib, unga qonunchilikka ko'ra moddiy yordam ham tayinlandi.



Vladimir KRYUKOV: "Rossiyada tug'ilganman. Ammo O'zbekiston mening Vatanim. Boshqa mamlakatda yashashni tasavvur ham qila olmayman. Chunki, aqlimni tanibmanki, 55 yildan buyon Navoiyda yashayman. To'g'ri, hujjatim yo'qligi sababli ko'p qiyaldim. Tirikchilik uchun chilangarlik, ustalik, olis hududlarda cho'ponlik ham qildim. Hozir 71 yoshdamon, nafaqaga chiqishim uchun, albatta, tug'ilganlik haqidagi guvohnomam kerak bo'ldi. Yaxshiyamki, baxtimga adliya idorasi bor ekan. Bir emas, uch marotaba Rossiya Federativ Respublikasiga so'rov jo'natildi. Hujjatlarim qayta tiklanib, qarilik pensiyasini oladigan bo'ldim. Navoiy shahar adliya bo'limi va FHDY idorasi xodimlariga rahmat".

Yurtimizda Xalqaro doirada hujjatlar almashinuvining fuqarolar uchun ortiqcha ovoragarchiliklarsiz, eng muhimi, bepul amalga oshirilayotgani yana bir imkoniyat. Bu Minsk va Kishinyov konvensiyalarida nazarda tutilgan tartiblar Prezidentning 4895-sonli qarori bilan mamlakat hududida mustahkamlab qo'yilgani natijasidir. U mohiyatan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish haqida hujjatlarni yuborish bo'yicha so'rovlarni jo'natish va ko'rib chiqish hamda yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilib olish bo'yicha so'rovlarni jo'natish va ko'rib chiqish tartibini o'zida mujassam etadi. Mazkur hujjat asosida Navoiy viloyat adliya organlarida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, fuqaro Aziza Sharipovanning murojaati oilaviy munosabatlar bilan bog'liq. Oila kodeksiga ko'ra, fuqaro sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmasan muddatga ozodlikdan

mahrum qilingan bo'lsa, o'rta voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular FHDYda nikohdan ajratiladi. A. Sharipova mazkur huquqdan foydalanish maqsadida Navoiy shahar FHDY organiga murojaat qildi.

Aziza SHARIPOVA: "Taqdir taqozosi bilan turmush o'rtog'im Rossiya davlatida qamoq jazosini o'tayotgani va o'sha davlatda norasmiy nikohi borligi uchun ajralishga qaror qildik. Biroq bu oson kechmadi. Navoiy shahar adliya va FHDY bo'limi 3 oy davomida nikohimizni bekor qilish uchun rasmiy idoralarga murojaat qildi. Niyoqat, ajrim guvohnomasini oldim. Beminnat huquqiy yordam uchun adliya idorasi xodimlaridan minnatdorman".

Raqamlashtirish jarayoni fuqarolar uchun yana bir qulaylik ekanini alohida ta'kidlash zarur. Chunki barcha tarmoqlarda elektron bazalarning shakllantirilishi bundan bir necha yil oldin amalda bo'lgan qog'oz hujjatlardagi kamchiliklar, e'tiborsizlik sabab qayd etilmay qolgan ma'lumotlarni yuzaga chiqardi. Konimex tumanidagi "Birlik" mahallasida istiqomat qiluvchi Zulfiya Qosimovaning ham 20 yillik muammofiga oydinlik kiritildi.

Zulfiya QOSIMOVA: "Oila tarkibim ishxonamidan o'rganilganda, 2005-yilda tug'ilgan o'g'lim Jasurbek Ergashev chaqaloqlik davrida vafot etgan bo'lsa-da, tiriklar safida turgani ayon bo'ldi. Menga bu holatni bartaraf etish uchun adliya bo'limiga murojaat qilishim tushuntirildi. Bu muammo adliya aralashuvi bilan sud orqali yechim topdi. FHDY arxiv bazasiga farzandimning o'lim guvohnomasi kiritildi".

Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" aksiyasi davomida shu kabi kamchiliklar bartaraf etilib, fuqarolarning shaxsiga oid barcha ma'lumotlar FHDY elektron bazalarida to'g'rilanmoqda.

Dildora KATTAYEVA,
Navoiy viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi,
Nodira SAMANDAROVA,
Navoiy shahar adliya bo'limi davlat
xizmatlari markazi xodimi

ISH HAQI KITOBIDAGI XATOLIK TUZATILDI

□ FUQARO A.A. 2005–2007-yillarda "To'rtko'l MPMZ" tashkilotida ishlagan davrida sug'urta badallari to'lanmagani uchun mehnat ish staji hisoblanmagani holati yuzasidan norozi bo'lib To'rtko'l tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.



Aniqlanishicha, haqiqatan ham, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limi pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi qarorida fuqaro A.A.ga 2005–2007-yillarda sug'urta badallari to'lanmagani sababli, mehnat ish staji hisoblanmagan.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 52-bandida "Ish staji ish, xizmat, o'qish yoki ish stajiga hisoblanadigan boshqa faoliyat amalga oshirilishi joyidan, shuningdek, arxiv muassasalaridan beriladigan hujjatlar bo'yicha belgilanadi", deb ko'rsatilgan bo'lib, "O'zarxiv" To'rtko'l tuman bo'limining 2025-yil 3-martdagi ma'lumotnomasida "To'rtko'l MPMZ" tashkilotining ish haqi kitobida fuqaro A.A.ga 2003–2007-yillarda ishlagan

davri uchun ish haqi yozilmagani tasdiqlandi.

Tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro A.A.ning manfaatlarini ko'zlab, Nukus tumanlararo ma'muriy sudiga Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limining 2024-yil 30-noyabrdagi Pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining 27759256-sonli qarorini qonunga xi洛 deb topish va fuqaro A.A.ning 2005–2007-yillarda "To'rtko'l MPMZ" tashkilotida ishlagan davrlarini ish stajiga qo'shib, pensiyani qayta hisoblash yuzasidan majburiyat yuklash bo'yicha kiritilgan da'vo arizasi 2025-yil 25-may kuni qanoatlantirilib, fuqaroning hisoblanmagan ish staji pensiyasiga qo'shilishi ta'minlandi.

Mansur NURADDINOV,
To'rtko'l tuman adliya
bo'limi boshlig'i

SUYUN BOBO MINNATDOR

□ YAKKABOG' tumanidagi "Qoratut" mahallasida yashayotgan – Suyun Norsaidov 1955-yil 20-noyabrdan dunyoga kelgan. Yillar davomida tug'ilganlik guvohnomasi yo'qligi sabab, na notarial ishini bitirdi, na rafiqasi bilan qonuniy nikohdan o'ta oldi.

Tuman, viloyat FHDY idoralari arxivlaridan Suyun boboning tug'ilganlikka oid hech qanday ma'lumot topilmadi.

Umr esa, o'tib bormoqda. Otaxonning muammoini yechishga insonparvarlik, adolat va mas'uliyat bilan yondashgan Yakkabog' tuman FHDY bo'limi mudiri bu masalani o'z nazoratiga oldi.

Suyun boboning nogironligini inobatga olgan holda, u inson haq-huquqidan foydalanishi uchun guvohnoma rasmiylashtirildi. Undan talab qilinadigan to'lovlar ham mudirning shaxsiy hisobidan to'lab berildi.



Eng muhimi, guvohnoma otaxonning 70 km uzoqlikda joylashgan xonardonigacha yetkazildi. Suyun boboning minnatdorlik duosidan adliya xodimlari mamnun.

**Qashqadaryo viloyat adliya
boshqarmasi axborot xizmati**

G'AYRIQONUNIY BUYRUQ BEKOR QILINDI

BUXORO shahrida yashovchi L. Saidova hamda I. Vohidovlar ning murojaati adliya bo'limi tomonidan o'rjanib chiqildi.

O'rganish davomida alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 27-sonli mifik-internatning ma'nnaviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari L. Saidova hamda bos hisobchi I. Vohidovlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi tashkilot tomonidan asossiz ravishda bekor qilingani aniqlandi.

Yuqoridagilarga asosan, adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga L. Saidova va I. Vohidovlar manfaatida mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqni g'ayriqonuniy deb topish hamda moddiy va ma'nnaviy zarar undirish to'g'risida da'vo arizalari kiritildi.



Sudning hal qiluv qaroriga asosan, xodimlar avvalgi lavozimlariga ishga tiklangan holda L. Saidova foydasiga 28 million 732 ming so'm, I. Vohidovga 15 million so'm to'lovlarni undirib berish belgilanib, xodimlarning buzilgan huquqlari tiklandi.

Muqanna TO'XTAYEV,
Buxoro shahar adliya
bo'limi boshlig'i

FUQAROLIK PASPORTI SUD ORQALI HAL BO'LDI

TO'RTKO'L tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan fuqaro B.Z. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik pasportini olish masalasida amaliy yordam berishni so'rangan.



Mazkur murojaatni o'rganish jarayonida B.Z. haqiqatan ham 1999-yildan buyon To'rtko'l tumanidagi "Atauba" ovul fuqarolar yig'inida "Fuqaroligi yo'q guvohnomasasi" bilan doimiy ro'yxatda turib, oila a'zolari bilan yashab kelayotgani aniqlandi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-martdagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunining 6-bandida "2005-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat

fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi, deb belgilangan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaroning 1999-yildan buyon To'rtko'l tumanidagi "Atauba" ovul fuqarolar yig'inida doimiy yashab kelayotganligi faktini belgilash yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudda fuqaroning ko'rsatilgan manzilda doimiy yashab kelganlik fakti tasdiqlandi. Unga tuman ichki ishlari bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini olishga amaliy yordam berildi.

Bekpulat AVAZMETOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i

QAYSI TURDAGI KASALLIKLAR BEPUL DAVOLANADI?

FUQAROLARNING adliya idoralariga yillar davomida yechilmagan muammolarini ijobji hal etishda amaliy yordam so'rab murojaat qilishi beziz emas. Mamlakatimizning olis hududlarida yashayotgan hamyurtlarimizning og'irini yengil qilishda adliya idoralarining xizmati katta. Xususan, Samarqand viloyatining turli hududlaridan yo'llangan quyidagi minnatdorlik satrлari fikrimizning yorqin dalilidir.

INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH – BOSH MEZON



48 yildan so'ng...

– 48 yildan beri sobiq SSSR davridagi pasport bilan yashab kelayotgandim. Yillar davomida hech qayerda rasman ro'yxatdan o'ta olmadim, pensiya yoshiga yetganimda ham pensiya olish huquqidан mahrum bo'ldim. Hatto tibbiy yoki ijtimoiy xizmatlardan to'liq foydalanish ham men uchun imkonsiz edi. Bunday bo'lishiga, rostini aytсан, o'zim ham aybdorman – vaqtida hujjatlarni rasmiylashtirishga yetarlicha ahamiyat bermaganman. Ammo eng katta to'siq – tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomamni yo'qotib qo'yanim bo'ldi. Bu hujjatsiz pasport berilishi mumkin emas ekan. Nihoyat, Pastdarg'om tuman 1-son FHDY bo'limi xodimlari bu ishga aralashib, ularning yordami bilan arxiv ma'lumotlari asosida tug'ilganligim to'g'risidagi hujjat tiklanib, yangi guvohnoma rasmiylashtirildi. Nihoyat fuqarolik pasporti olish imkoniga ega bo'ldim. Endi men ham mamlakatimizning to'laqonli fuqarosiman. Eng muhim – pensiyamni ham rasmiylashtirish ishlari boshlandi. Bu men uchun nafaqat hujjat, balki insoniy qadr-qimmat bilan yashash imkonidir. Bunday imkoniyat yaratib berganlardan, ayniqsa, FHDY xodimlaridan minnatdorman.

Nayla KURTAKOVA,
Pastdarg'om tumani

"Buyrug'ing chiqmagan" degan bahona o'tmadi

– Urgut tuman tibbiyot birlashmasida ish boshlaganimga uncha ko'p bo'lgani yo'q. Stomatolog vrach sifatida bemorlarni qabul qilib, qo'limdan

kelganicha el-yurtga xizmat qilyapman. Ammo ishlayotgan bo'lsamda, har oyning oxirida "Nega menga maosh berilmayapti?" degan savol meni qiyardi.

Buxgalteriyaga shu savol bilan yuzlansam, "buyrug'ing chiqmagan" degan bahonadan nariga o'tmasdi. Aslida buyrug'im 2025-yil mart oyida chiqqan bo'lsa-da, meni rasmiy ishchi deb tan olmaslikka urinishdi. Bu adolatsizlikka barham berish uchun Urgut tuman adliya bo'limiga murojaat qildim. Adliya xodimlari meni qo'llab-quvvatlashdi. Huquqlarimni tushuntirishdi, tegishli tartibda rasmiy ariza yozishimga yordam berishdi. Adliyaning ko'magi bilan maoshimni to'liq olishga erishdim. Bu nafaqat pul masalasi – balki adolat, inson huquqi masalasi edi.

Hozir esa yana yuzimda tabassum bilan bemorlarimni qabul qilyapman.

Javohir TOHIROV,
shifokor

Xizmatimiz qiymatsiz qolgan edi...

– Urgut tumanidagi suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi sifatida yillar davomida fermer xo'jaliklariga uzluksiz ravishda suv yetkazib berardik. Biroq faoliyatimizga mos ravishda haq to'lash kerak bo'lgan fermer xo'jaliklar, afsuski, belgilangan to'lovlarni vaqtida amalga oshirmsaslikni odat qilib oldi. Oradan oylar o'tdi, to'lanmagan hisoblar ko'paydi. Bir paytlar "xizmat qil, keyin to'lashadi" degan ishonch bilan boshlangan munosabat oxirida berilgan xizmat qiymatsiz qolgan bir vaziyatga aylandi. Nihoyat, biz Urgut tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qildik. Ular masalaga jiddiy yondashishdi. Huquqiy asoslar, shartnomalar, ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi hujjatlar qayta ko'rib chiqildi. Huquqiy choralar ko'riliши natijasida kechiktirilgan barcha to'lovlар to'liq undirildi. Huquqimiz himoyalanganidan xursandmiz.

Bektosh HAZRATQULOV,
Urgut tuman Suv yetkazib berish
xizmati davlat muassasasi xodimi



6 TALQIN

TERGOV SUDYASI: QONUNIYLIK VA ADOLAT

PREZIDENTNING 2024-yil 10-iyundagi “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab tergov sudyasi instituti joriy qilindi.

Ushbu farmonga asosan 2025-yil 28-yanvara qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Tergov sudyasining vakolatlari

Yuqorida hujjatlar asosida amalga oshirilgan eng muhim o‘zgarish O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga 31'-modda bilan jinoyat ishini yuritishga mas’ul davlat organlari va mansabdor shaxslari ro‘yxatiga yangi subyekt – tergov sudyasi va uning vakolatlari kiritilgani bo‘ldi. Bunga ko‘ra, tergov sudyasi yakka o‘zi ish tutib, ushbu kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari rivoja etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga: qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvching tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; murdani eksgumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrланuvching (fuqaroyi da‘vogarning) ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarini ko‘rib chiqish; tintuv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib

chiqish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish; mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish kiradi.

Yangi qonun bilan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga ham tegishli o‘zgartishlar kiritildi. Ushbu kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan shu kungacha ko‘rib kelinayotgan barcha ma‘muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlar endilikda jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Xorijiy tajriba

Tergov sudyasining vazifalari va javobgarligini belgilashda xalqaro tajribaga, huquqshunos olimlarning fikrlariga asoslanish ham muhim. Masalan, amerikalik huquqshunos olim David Kesslerning fikricha, “Tergov sudyasining asosiy vazifasi, taraflarning asosiy huquqlarini himoya qilish va shu orqali huquqiy tartibni ta‘minlashdan iborat”. Fransiyalik huquqshunos olim Jean-Pierre Marguénaud ta‘kidlaganidek, “Tergov sudyasining mustaqilligi va aniqligi sud tizimi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki bu to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishda muvaffaqiyatni ta‘minlaydi”. Xuddi shuningdek, ingliz olimi Lucia Zednerning ta‘kidlashicha, “Tergov sudyasining asosiy vazifasi – tergov davrida davlat organlari va jamoat manfaatlarni himoya qilish, shu bilan birga, shaxs huquqlarining

buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir”. Italiyalik mutaxassis Mirko Sossai qayd qilganidek, “Tergov sudyasi, mahkumlarning huquqlarini himoya qilish va tergov jarayonining shaffofligini ta‘minlashda markaziy rol o‘ynaydi”.

Shuningdek, tergov sudyasi faqat sud organi a‘zosini emas, balki inson huquqlarining ishonchli himoyachisi va ko‘plab qonunchilik jarayonlarining muhim ishtirokchisidir. Buning sababi, tergov sudyasi jinoyat ishlarining ilk bosqichida, ayrim hollarda, insonlarning erkinliklari, shaxsiy daxlsizligi va boshqa asosiy huquqlari bilan bog‘liq qarorlarni qabul qiladi. Shuning uchun tergov sudyasi avvalo qonunning har bir talabiga rivoja etilishini ta‘minlashga va jinoyatda ayblanuvchining huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishga ahamiyat berishi zarur. U tergov jarayonining har bir bosqichida prokuror va advokatning ishtirok etishini nazorat qilishi, tergovni qonunga muvofiq olib borilishini ta‘minlashi shart!

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonda tergov sudyasi institutining joriy qilingani va ayni vaqtida tergov sudyasining vazifalari va mas’uliyatining aniqlab berilganligi jinoyat-protsessual qonunchilikning liberallashtirilishiga, demokratik huquqiy islohotlarning chuqurlashishiga va inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

**Sanjar MUHAMEDOV,
jinoyat ishlari bo‘yicha Pskent
tuman sudi tergov sudyasi**

BUGUNGI kunda mamlakatimizda fuqarolarning davlat organlariga erkin murojaat qilish, o‘z fikr va takliflarini bayon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biring aylangan. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslar, jumladan, eshitish imkoniyati cheklangan fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur soha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingen. Xususan, Konstitutsiyaning 40-moddasida har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birligida davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi mavjudligi, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish huquqining kafolatlanishi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunda surdotarjimonlik xizmatlari ko‘rsatish zarurligi ko‘zda tutilgan.

Qulay muloqot uchun

Surdotarjimon eshitish va nutq qobiliyati cheklangan insonlar bilan imo-ishora tili orqali aloqa o‘rnatadigan mutaxassisidir. U fuqarolarning ehtiyojlarini tushunishga, murojaatni to‘g‘ri bayon etishga va javoblarni aniq yetkazishga ko‘maklasadi. Bunday tarjimonlarning ishtiroki orqali

FUQAROLAR QABULIDA SURDOTARJIMONNING ISHTIROKI

nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi va o‘zlariga tegishli masalalar bo‘yicha aniq va tezkor yordam olish imkoniga ega bo‘ladi.

2024-yil 18-iyulda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori bu sohaga qaratilgan yuksak e’tibordan dalolatdir. Qarorga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab vazirlik va idoralar, ularning tizim tashkilotlari hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar fuqarolar qabuli va sayyor qabullarni o‘tkazishda majburiy tarzda surdotarjimon ishtirokini ta‘minlashi, vazirlik va idoralar, ularning tizim tashkilotlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalarning fuqarolar murojaatlari bilan ishslash bo‘yicha bir nafar xodimi surdotarjimonlik kurslarida o‘qitilishi belgilab qo‘yildi.

Teng imkoniyatlar yaratilmoqda

Statistik ma‘lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sog‘liqni saqlash vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga 23 mingdan ortiq fuqaro eshitish imkoniyati cheklanganlar toifasiga kirdi. Respublikamizda 200 dan ortiq malakali surdotarjimon faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda Adliya vazirligi, IIV va Xalq qabulxonalari tizimida jami 3 ming 500 dan ortiq eshitish cheklivi bo‘lgan

fugaro surdotarjimonlar ishtirokida qabul qilin-gan. Toshkent, Samarkand, Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida maxsus o‘quv kurslari orqali surdotarjimonlar tayyorlanmoqda.

Fuqarolarni qabul qilishda surdotarjimon ishtiroking natijalari samaralidir. Jumladan, surdotarjimonlar ishtirokidagi murojaatlarni qabul qilishda quyidagi jihatlar ko‘zga tashlanadi:

- teng imkoniyatlar yaratilmoqda – nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatda o‘z huquqlarini to‘laqonli amalga oshira olmoqda;
- muloqot sifati oshmoqda – murojaatlarni ko‘rib chiqilish vaqtini qisqarmoqda;
- ijtimoiy inklyuziya kuchaymoqda – jamiyatda nogironlar bilan ishslash madaniyati rivojlanmoqda.

Fuqarolarni qabul qilish jarayonida surdotarjimonlarning ishtiroki nafaqat zarurat, balki adolatli va inkyuziv jamiyat qurish yo‘lida tashlangan muhim qadamlardan biridir. Har bir fuqaro, imkoniyatidan qat‘i nazar, o‘z ovozini eshittirish huquqiga ega. Bu huquqning amalda ta‘minlanishi esa, bizning insoniylik, tenglik va hurmat tamoyillariga sodiqligimizni ko‘rsatadi. Buning uchun esa, davlat va jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim.

**Sanjar PARAYEV,
X. Sulaymonova nomidagi Respublika
sud ekspertiza markazi
Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi
katta mutaxassis**

SUDGACHA SHIKOYAT QILISHNING YANGI MEXANIZMI

Davlat boshqaruvi sohasidagi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi huquqiy siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda inson huquqlarini ishonchli himoya qilish, davlat organlari va mansabdar shaxslarning aholi bilan o'zaro manfaatlari aloqasini o'rnatish, zamonaviy mexanizm va shakllarni yaratish bo'yicha qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmogda. Shu nuqtayi nazardan, Adliya vazirligi va Toshkent shahar adliya boshqarmasi huzurida Apellyatsiya kengashlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi nizolarni sudgacha hal qilishning muhim vositali hisoblanadi.

Huquqiy asos

Mazkur tizim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruvi tizimini shakllantirish to'g'risida"gi farmoniga asosan joriy etilgan. Keyinchalik ushbu tizimning to'laqonli faoliyat yuritishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi "Huquqiy eksperiment tariqasida davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy hujjatlar bo'yicha nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va "Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi vaqtinchalik nizom tasdiqlandi.

Apellyatsiya kengashlarini tashkil etish tashabbusining amalga oshirilishi fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirot etishi va ularning huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy kafolatlari bilan bevosita bog'liqidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq "Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqilanganmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orgali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdar shaxslarining qonunga xi洛 qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi". Ushbu qoida jamiyat va davlat o'rtaсидagi o'zaro munosabatlarning eng muhim mexanizmini mustahkamlaydi hamda shikoyatlarni sudgacha

ko'rib chiqish institutlari, shu jumladan Apellyatsiya kengashlari faoliyatining huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Apellyatsiya kengashlari

Apellyatsiya kengashlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kollegial organ bo'lib, 2026-yil 1-iyulga qadar Toshkent shahrida huquqiy eksperiment tartibida faoliyat yuritadi. Ularning faoliyati davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan sudgacha ko'rib chiqishga qaratilgan.

Ushbu institutning asosiy afzalliklariga huquqlarni suddan tashqari himoya qilishning muqobil mexanizmi, mustaqillik va xolislikni ta'minlash, tartib-taomillarning tezkorligi, ariza beruvchilar uchun moliyaviy xarajatlarining yo'qligi, tartib-taomillarni raqamlashtirish va elektron platformalar orqali foydalaniш imkoniyati, qarorlarni ijob etishning majburiyligi, davlat xizmatlari yo'nalishlarining keng qamrovi, shuningdek, qayta ariza berish zaruratinining yo'qligi kabilarni kiritish mumkin.

Shikoyat qilish tartibi

Shikoyat qilish tartibiga kelsak, u manfaatdar shaxsning o'zi tomonidan ham, uning vakolatlari vakili tomonidan ham qo'zg'atilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy qarorlar ustidan sudgacha shikoyat qilishning zamonaviy mexanizmi shundan iboratki, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi vakolatlari organlarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan manfaatdar shaxslarning shikoyatlari elektron shaklda - ham ariza beruvchi tomonidan YIDXP orqali shaxsan, ham ariza beruvchi nomidan davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan berilishi mumkin. Shu bilan birga, shikoyat vakil tomonidan berilgan taqdirda, uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi shart.

Shuni ta'kidlash kerakki, shikoyat berish ixtiyor ravishda amalga oshiriladi va ariza beruvchining bevosita sudga murojaat qilish huquqini cheklamaydi. Bundan tashqari, shikoyat berish uchun alohida to'lov olinmaydi, bu esa ushbu mexanizmi sud tartibidan ko'ra qulayroq qiladi.

Shikoyat apellyatsiya kengashiga real vaqt rejimida yuboriladi. YIDXP orqali murojaat qilinganda, tizim avtomatik ravishda davlat xizmatining turiga qarab tegishli apellyatsiya kengashini aniqlaydi. Bunda ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra tasdiqlovchi materiallarni ilova qilishga haqli. Shikoyatda arizachi to'g'risidagi ma'lumotlar, nizo mohiyatining tavsifi, shikoyat qilinayotgan harakatning (harakatsizlikning) qonunga xi洛ligi yoki asossizligining asosi, shuningdek unga ilova qilingan hujjatlar va dalillar ro'yxati ko'rsatilishi kerak.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish

Qonunchilikda shikoyatni ko'rib chiqishni rad etish uchun aniq asoslar belgilangan. Ularga quyidagilar kiradi:

- shunga o'xshash masalalar bo'yicha sud muhokamasining mavjudligi;
- shikoyatning davlat xizmati ko'rsatilishi bilan aloqasi yo'qligi;
- bila turib yolg'on yoki soxtalashtirilgan ma'lumotlarni taqdim etish;
- shikoyat qilishning belgilangan muddatini o'tkazib yuborish (ma'muriy hujjat kuchga kirgan kundan boshlab 30 kalendar kun).

Bunday asoslar mavjud bo'lganda kotib tegishli xulosa tuzadi, u kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi, shundan so'ng ariza beruvchi qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qilinadi.

Shunga qaramay, barcha talablarga rioya etilgan taqdirda, shikoyat 15 ish kunidan kechiktirmay mazmunan ko'rib chiqilishi lozim. Qo'shimcha tekshirish yoki qo'shimcha materiallarni talab qilib olish zarur bo'lgan taqdirda muddat ko'pi bilan 15 kunga uzaytilishi mumkin. Barcha ishtirokchilar - arizachi, kengash a'zolari va vakolatlari organlar vakillari yig'ilish o'tkaziladigan sana haqida oldindan xabardor qilinadi.

Kengash majlislari

Apellyatsiya kengashining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Ular kvorum - kengash a'zolarining yarmidan ko'pi mavjud bo'lgan taqdirda vakolatlari hisoblanadi. Qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, ovozlar teng bo'lganda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi. E'tiborlisi, kengashning birorta a'zosini ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan kengash a'zosining alohida fikri ish materiallari qo'shib qo'yiladi. Majlisda ham yuzma-yuz, ham videokonferensaloqa orqali ishtirok etish mumkin. Tegishli tarzda xabardor qilingan ishtirokchilarning kelmagani shikoyatni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Apellyatsiya kengashlarining majlislari kengash raisining qaroriga ko'ra va manfaatdar shaxsga bu haqda xabar berilgan holda audio-va videotasvirga, shuningdek, fotosuratga olinishi mumkin. Audio-va videoyozuv, fotosuratlar manfaatdar shaxs va vakolatlari organga taqdim etilishi mumkin. Apellyatsiya kengashlari 20 dan ortiq turdag'i davlat xizmatlari doirasida ma'muriy hujjatlarning huquqiy ekspertizasini amalga oshiradi. Shikoyatni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha ular:

- dalolatnomani o'zgarishsiz goldirish;
- vakolatlari organni o'zgartirishlar kiritish majburiyatini yuklash;
- arizani takroran ko'rib chiqish uchun yuborib, dalolatnomani to'liq yoki qisman bekor qilishlari mumkin.

Qabul qilingan qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi, kengashning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilgan holda "E-qaror" tizimida e'lon qilinadi. Shuningdek, u uch ish kuni ichida tomonlarga yuboriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, apellyatsiya kengashining qarorlari vakolatlari organlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi va ular tomonidan shikoyat qilinishi mumkin emas. Shu bilan birga, manfaatdar shaxslar sudga shikoyat qilish huquqini saqlab qoladilar.

Ma'muriy hujjat bekor qilinganda yoki o'zgartirilganda ariza YIDXPga yoxud vakolatlari organning axborot tizimiga avtomatik tarzda - ariza beruvchi tomonidan takroran yuborish zaruratisiz qaytariladi. Takroran ko'rib chiqish:

- dalolatnomi o'zgartirilgan taqdirda - 3 ish kuni;
- tegishli ma'muriy reglamentlarda belgilangan muddatlarda - dalolatnomi to'liq yoki qisman bekor qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Vakolatlari organlar qayta ko'rib chiqish natijalari to'g'risida apellyatsiya kengashlarini xabardor qilishi shart.

Shunday qilib, Adliya vazirligi va Toshkent shahar adliya boshqarmasi huzuridagi Apellyatsiya kengashi davlat xizmatining ochiqligi va hisobdorligi tamoyillarini mustahkamashda muhim rol o'ynaydi. U fuqarolar va tashkilotlarga o'z huquqlarini sudga murojaat qilmasdan himoya qilish imkonini beradi, davlat va jamiyat o'rtaсидagi o'zaro munosabatlarning samarali modelini shakllantirishga ko'maklashadi.

**Zulfizar KARIMOVA,
Adliya vazirligi huzuridagi
Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga
solish ta'sirini baholash instituti
mas'ul xodimi**

E'LONLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 30-iyundagi 233-um-soni buyrug'iga asosan "AQMANGIT ADVOKATI" advokatlik byurosi advokati Bayniyazov Majid Duysenbayevichning kasalligi sababli uning advokatlik maqomi 2025-yil 21-iyundan 4 (to'rt) oy muddatga to'xtatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi malaka komissiyasining 2025-yil 17-iyundagi 7-sonli majlis qarori va adliya vazirining shu sanadagi 213-um-soni buyrug'iga asosan Xo'jayli tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius P. Dauyenovga (QR0020, 22.04.2020) vazirlik tomonidan berilgan litsenziyasining amal qilishi hamda notarius maqomi 20-iyun kunidan 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 26-iyundagi 127-um-soni buyrug'iga asosan, advokat Turanov Ergash Egamberdiyevichga 2018-yil 28-dekabrda berilgan L-70663718-soni advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning hamda 2023-yil 1-dekabrda berilgan 003400-soni advokatlik guvohnomasining amal qilishi uning vafot etgani sababli tugatildi.

8 TA'LIM

KELAJAK O'QITUVCHISI – INTELLEKTUAL JAMIYAT ME'MORI

BUGUNGI tez rivojlanayotgan texnologiyalar va har qanday ma'lumot bir zumda qo'l yetadigan davrda o'qituvchining roli tubdan o'zgarib bormoqda. Endi o'qituvchi shunchaki ma'lumot yetkazuvchi emas, balki bilim olamiga yo'l ko'rsatuvchi, ustoz, ilhomlantiruvchi va kelajak arxitektori sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangi avlod o'qituvchisi qanday fazilatlarga ega bo'lishi darkor? U zamonaviy davr chaqiriqlariga qanday moslashishi kerak?



Raqamli kompetentlik – zarurat

Bugungi o'qituvchi faqat zamonaviy raqamli vositalarni bilishi emas, balki ularni o'quvchilardan ham ilgari va samarali tarzda o'qitish jarayoniga qo'shishni bilishi kerak. Bu har bir yangi trend yoki ilovani mukammal bilish kerak, degani emas, lekin o'qituvchi raqamli moslashuvchanlik, yangi vositalarni tez o'zlashtira olish va ularning ta'limga uchun foydasini baholash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Kelajak o'qituvchisi texnologiyalardan shunchaki foydalanmaydi, balki ularni aniq maqsadlar uchun, pedagogik natijalarga erishish vositasi sifatida qo'llaydi. U virtual haqiqat, sun'iy intellekt, interaktiv platformalar kabi vositalar yordamida o'quv muhitini boyitadi va an'anaviy ta'limga usullarini samarali to'diradi.

Ilg'or texnologiyalar asrida

Sun'iy intellekt

Sun'iy intellekt rivoji ortidan insoniy fazilatlarining qadri yanada oshmoqda. Sun'iy intellektning eng muhim qobiliyatlaridan biriga aylanadi. Zamonaviy pedagog har bir o'quvchi o'zini qadrlangan deb his qiladigan xavfsiz muhit yaratishi kerak. U bolalarda nafaqat aql, balki hissiy savodxonlik, empatiya, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Texnologiyalar qanchalik rivojlanishidan qat'iy nazar, aynan mana shunday "yumshoq" ko'nikmalarga doimo talab kuchli bo'lishi tabiiy.

Tafakkurni shakllantirish sari

Ma'lumotlar tez yangilanadigan va eskiradigan dunyoda asosiy maqsad – ma'lum bir hajmdagi bilim emas, balki tafakkurni shakllantirishdir. Tanqidiy, tizimli fikrlash, axborotni tahsil qilish va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar ertangi ta'limga asosini tashkil etadi.

Bunday o'qituvchi tayyor javob bermaydi, balki savol berishni, muammolar yechimini topishda yo'l ko'rsatadi. U bolalarni faqat faktlarni yodlashga emas, balki ular orasidagi bog'liqlikni ko'rishga, sabab-natijalarni aniqlashga, gipotezani ilgari surib, uni sinab ko'rishga o'rgatadi. O'qituvchi endi haqiqat tashuvchisi emas, balki o'quvchilar bilan birga izlanadigan tadqiqotchiga aylanadi.

Individuallashtirish – asosiy tamoyil

Sanoat inqilobi zamonidan qolgan "hamma uchun bir xil" ta'limga endi o'tmishga aylanmoqda. Kelajak o'qituvchisi har bir bola o'ziga xos va takrorlanmasligini, har kimning rivojlanish tezligi, o'qish uslubi, qiziqishi va istedodi borligini yaxshi anglaydi.

Yangi avlod pedagogi raqamli texnologiya va ma'lumotlar tahlili asosida har bir o'quvchi uchun alohida ta'limga yo'nalishini tanlay oladi va uning salohiyatini to'liq namoyon qilishga yordam beradi. Bunda texnologiyalar o'qituvchini oddiy ishlardan xalos qilib, unga o'quvchilar bilan jonli ijodiy muloqot uchun ko'proq vaqt beradi.

Uzlucksiz rivojlanish – hayot tarzi

Kelajak o'qituvchisi – doimiy o'quvchi. U o'z ta'limi hech qachon tugamasligini anglaydi. Bilim va texnologiyalar tez o'zgarayotgan dunyoda pedagog doimo yangi narsalarni o'rganib borishi, o'z ustida ishlashi va yangi tajribalarga ochiq bo'lishi zarur.

Bunday ustoz nimanidir bilmasligini tan olishdan uylamaydi, hamkasblaridan, boshqa soha vakillaridan va hatto o'z o'quvchilaridan ham o'rganishga tayyor bo'ladi. U o'z kasbining ilg'or amaliyotlarini o'rganib, fikr almashadigan professional jamoalarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Uning uchun uzluksiz rivojlanish tashqi talab emas, ichki ehtiyojga aylanadi.

Global fikrlash

Bugungi globallashuv davrida o'qituvchi keng dunyoqarashga va madaniy tafovutlarni hurmat qilishga intiladi. U o'quvchilarni nafaqat o'z yurti, balki dunyo fuqarosi sifatida ham tarbiyalaydi, ularni turli madaniyat va qarashlarni qadrlashga o'rgatadi.

Bunday pedagog har bir o'quvchiga o'zligini to'pishda, muloqot va murosa qilish, global qadriyatlarni anglash va hurmat qilish ko'nikmalarini singdiradi.

Xulosa shuki, o'qituvchi – kelajak me'mori.

Kelajak o'qituvchisi shunchaki bilim beruvchi emas, balki jamiyatning intellektual arxitektori. U nafaqat o'quvchilarning ongi, balki qalbini ham tarbiyalaydi, ularni axloqiy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, tez o'zgarayotgan dunyoda to'g'ri va mas'uliyatli qaror qabul qiladigan inson bo'lib voyaga yetkazishga zamin yaratadi.

Eng asosiysi, kelajak o'qituvchisining vazifasi dunyoni o'zidan keyin yaxshiroq qilishga qodir avlodni voyaga yetkazishdir. Buning uchun u zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishi, eng muhimi, o'zi ham yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

Muxtorbek YUSUPOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi

ADLIYA FAXRIYSI

MEHNATDAN QADR TOPGAN SULTON AKA



Mehnat insonni ulug'laydi. Ota-bobolarnimizdan qolgan "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylig" degan maqol bejizga aytildagan. El-yurt o'rtasida qozonilgan hurmat va e'tibor albatta halol mehnat tufayli ekanini isbotlashga hojat yo'q. Hurmatli inson bo'lish zamirida yillarning mashaqqati, mehnatning zahmati, mas'uliyati mujassam.

Bugungi qahramonimiz Sultan Umurov ham mehnatni ulug'lab, qadr topganlardan. Mehnat faoliyatini 1973-yilda G'ijduvon tumanidagi paxta tozalash zavodida oddiy ishchilikdan boshlagan S. Umurov oradan uch yil o'tib, Toshkent hisob-kredit texnikumida tahsil oldi. Texnikumni tamomlab, Shofirkon tuman davlat banki inspektori, keyinchalik G'ijduvon tuman ma'lumot markazi dispetcheri, G'ijduvon tuman ijroiya qo'mitasi bosh hisobchisi, G'ijduvon tuman konserva zavodi ombor mudiri, tuman hokimligi huzuridagi yakka tartibda uy-joy qurilish boshqarmasi bosh hisobchisi lavozimlarida ishladi.

Sulton aka yillar davomida turli sohalarda mehnat qildi. Qaysi sohada, yoki qaysi lavozimda ishlamasin, o'z vazifasini sidqidildan bajardi.

1998-yildan boshlab qariyb yigirma yil davomida arxiv sohasida, ya'ni 1998–2004-yillarda Buxoro viloyat davlat arxivi G'ijduvon tuman filiali hisobchisi, 2004-yildan 2016-yilgacha G'ijduvon tuman davlat arxivi direktori lavozimida samarali xizmat qildi. Arxiv hujjatlarida inson umrining izi borligi, kezi kelganda bir parcha hujjat inson taqdirlini hal qilishi mumkinligini o'z ish faoliyatida his etdi. Har bir hujjatning uzoq yillar xavfsiz saqlanishi uchun mas'ulligini unutmadi.

Bugun faxriylar safidan joy olgan qahramonimiz hayotda ham pastu baland dovonlardan, turli sinovlardan o'tdi. Oila qo'rg'onida elga munosib farzandlarni tarbiyalab, kamolga yetkazdi. Hayot quvonchlaridan kuch-g'ayrat, boshga tushgan g'amu tashvishlardan saboq oldi.

Umrining salkam qirq yilini el-yurt xizmatiga bag'ishlagan Sultan Umurovga tabarruk yoshingiz muborak bo'lsin, deymiz!

Marusa HOSIOVA,
"Inson va qonun" muxbirini